

PUDRAT SHARTNOMASI

Bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb ataluvchi **Quvasoy shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan mudiri E.O.Kuziyev** bir tomondan xamda bundan buyon "**Pudratchi**" deb ataluvchi "**VODIY JAVOHIR INVEST**" **xususiy korxonasi** tomondan rahbari **USMONOV JAVOXIR AXLIDDIN O'G'LI** ushbu shartnomani qo'yidagi mazmunda tuzdik.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga asosan **Quvasoy shahar 21-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini joriy ta'mirlash ishlarini** bajarish uchun loyixa va smeta hujjatlari bo'yicha bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. TO'LOV SHARTLARI

2.1 Buyurtmachi Pudratchiga ob'ektga mablag'lar ajratilganidan so'ng shartnoma bo'yicha ishlar umumiy **69 000 000,0 (oltmish to'qqiz million) so'mni** joriy qiymatining **30 foizi** miqdorida avans to'lovi o'tkazadi, bu **20 700 000,0 (yigirma million yetti yuz ming) so'm** mablag'ni tashkil etadi.

2.2 Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun obyekt maxsus hisob raqamiga mablag'lar ajratilganidan so'ng oylik bajarilgan ishlar hisob fakturalari xamda moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos xisoblanadi.

2.3 Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin berilgan avansni proporsional ravishda ushlab kolingan xolda, oyma-oy bajarilgan ishlar uchun obyekt umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 100 foizi doirasida amalga oshiriladi.

2.4 Obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 5 foizi qurilish tugallangan obyektning hisob faktura summasidan kelishuv asosida olib qolinadi. Yakuniy tekshiruv yakuniga ko'ra moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

2.5 Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha obyektga mulk xuquqini o'zida saqlab qoladi. Obyekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar obyektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

2.6 Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu xaqda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan xolda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish xuquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun xaq to'lashdan ozod qilinmaydi.

III. TARAFLAR MAJBURIYATLARI

3.1 Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:-barcha ishlarni mazkur shartnomada ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb kilingan kuchlar bilan bajarish va unga xisobotlarni oyma-oy buyurtmachiga topshirish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq muddatida tugatib topshirish, qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlari, qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shartnoma bo'yicha obyektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;-qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;-mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z

zimmasiga oladi. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi Loyixa va smeta xujjatlari bo'yicha ishlarni bajarish vaktida rioya kilinmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni tulik koplaydi bajarilmagan ishning muddati utkan kun uchun maxsulot baxosidan 10% jarima tulanadi . Tegishli darajada sifatsiz bajarilgan ish uchun pudratchi shartnoma umumiy baxosini 0,5% mikdorida jarima tulaydi.

3.2 Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:-mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obyekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

-ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;-Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;-mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;-mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tuliq xajmda bajarish majburiyatini oladi.

IV. TARAFLAR JAVOGBARLIGI

4.1 Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

4.2 Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, obyekt xisob raqamiga mablag'lar berilgandan so'ng o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan kismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya tulanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

4.3 Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar xajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiklashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

4.4 Pudratchi obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

4.5 Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish xujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u xolda Buyurtmachi yakuniy tekshirish xulosasi asosida obyektini qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 100 foizi miqdorida jarima undirish xuquqiga ega.

4.6 Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan koplanmagan zararlarni qoplaydi.

4.7 Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

V. FORS-MAJOR XOLATLARI

5.1 Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

5.2 Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

5.3 Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

VI. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

6.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimchashartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

6.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijro iyaorganlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklifetilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda buturdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchipudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

6.4 Ushbu holat bo'yicha bir tarafikkinchitarafnihamda vakolatli davlat organlarinida rholxabardorqilishi shart.

6.5 Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarlilarni Bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat

Ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

VII. BOSHQA SHARTLAR

7.1 Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

7.2 Pudratchi qurilish obyektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

7.3 Mazkur shartnomaga barcha o'zgartish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

7.4 Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

7.5 Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlarni yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

7.6 Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonunchilik hujjatlari normalari qo'llaniladi.

7.7 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Ushbu shartnoma G'aznachilik boshqarmasi (bo'linmasi) tomonidan ro'yxatga olingandan so'ng qonuniy kuchga ega bo'ladi.

VIII. TARAFLARNING YURIDIK MANZILGOXI VA TULOV REKVIZITLARI

<u>«PUDRATCHI»</u>	<u>«BUYURTMACHI»</u>
“VODIY JAVOHIR INVEST” xususiy korxonasi (ish vs xizmatlar nomi)	Quvasoy shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi (Byudjetdan mablag' oluvchining nomi)
Manzil: Farg'ona sh. A.Navoiy ko'chasi, 67/12-uy	Manzil: Quvasoy shahar Ibrat ko'chasi 17 uy
Tel, faks: +998994036221	Tel/Faksc 916699707
X/R: 20208000600759551001	SHXR: 100022860304087091100251016
OKONX: 61110	STIR: 305153731 OKONX:92400
Bank nomi: Kuvasoy sh. Xamkorbank AT banki	Moliya Vazirligi G'aznachiligi
MFO: 01003	X/R: 23402000300100001010
STIR: 304779300	Bank nomi: XKKM Markaziy bank Toshkent
	MFO: 00014 STIR: 201122919



Rahbar _____ J.Usmonov

(imzo)

Rahbar _____ E.O.Kuziyev

(imzo)

M.O'.

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ELDOR KUZIYEV ORIBJONOVICH
	Imzolangan sana	14.10.2022 10:43
	Hujjat kodi	KZ6334770048
	Hulosa kodi	WL7776716320

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

WL7776716320

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **“VODIY JAVOHIR INVEST” xususiy korxonasi bilan pudrat shartnomasi.**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: QUVASOY SHAHAR MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI tomonidan 13.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Quvasoy shahar
yuridik markazi
markaz rahbari:**



A.R.ABDURAXIMOV

13.10.2022



«ТАСДИКЛАЙМАН»
Қувасой шаҳар Мактабгача
таълим бўлими мудири
Э.О.Қўзиев

Қувасой шаҳри

15.10.2022 йил

Қувасой шаҳар №21-сонли мактабгача таълим ташкилотининг жорий таъмирлаш ишлари учун

№22110012159276 лот рақамли эълоннинг 12.10.2022 йил кунги электрон баённомаси

муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси

БАЁННОМА ХУЛОСАСИ

1. Қувасой шаҳар №21-сонли мактабгача таълим ташкилотининг жорий таъмирлаш ишлари учун маҳаллий бюджет маблағлари ҳисоби ва харажатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Қувасой шаҳар №21-сонли мактабгача таълим ташкилотининг жорий таъмирлаш ишлари юзасидан 12.10.2022 йил куни тузилган харид комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларни баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандарига асосан etender.uzex.uz махсус ахборот порталидаги 12.10.2022 йил куни тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада қолиб деб топилган "VODIY JAVOHIR INVEST" хусусий корхонаси билан белгиланган тартибда 69000000,0 (Олтмиш тўққиз миллион) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

Фозилов Шерзод Баходиржон ўғли

Аминджанов Турсунбой Ганиджонович

Ибрагимова Барчиной Дадажоновна

Ташматова Шахнозахон Улуғбек кизи

Котиб:

Нишанов Азизхон Мирамирович

**159276 лот юзасидан шакланган дастлабки
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

15.10.2022 11:19

Комиссия раиси:



KUZIYEV ELDOR ORIBJONOVICH